WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

FUZULIY SHE’RIYATINING QO‘QON ADABIY MUHITIGA TA’SIRI

Norkuziyeva Mahliyoxon Iqboljon qizi, Qo’qon davlat universiteti magistratura bo’limi o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-kurs mgistranti, tel: +998917411121, e-mail: mahliyokhanmiryunusova@gmail.com.

Annotatsiya: mazkur maqolada XVI asr ozarbayjon mumtoz she’riyatining buyuk vakili Muhammad Fuzuliy ijodining XIX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitiga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy ob’ekti sifatida Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi va yetakchisi, zullisonayn shoir Amiriy (Amir Umarxon) ijodi misol qilib olingan. Maqolada Fuzuliy g‘azallariga Amiriy tomonidan tatabbu’ bog’lanishi, taxmis bog‘lanishi, shuningdek, fuzuliyona leksika, uslub va obrazlar tizimining Amiriy she’riyatiga singdirilganligi tahlil etiladi. Shuningdek, Fuzuliy an’analarining Qo‘qon adabiy muhitining Nodira, Fazliy Namangoniy, Muqimiy kabi boshqa vakillari ijodiga bilvosita ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Maqola adabiy ta’sir, izdoshlik, tatabbu va nazirachilik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, Sharq mumtoz adabiyotida an’ana va novatorlik dialektikasini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Fuzuliy, Amiriy, Qo‘qon adabiy muhiti, tatabbu, taxmis, adabiy ta’sir, izdoshlik, an’ana, novatorlik, g‘azal.

Аннотация: в данной статье исследуется влияние творчества великого представителя азербайджанской классической поэзии XVI века Мухаммада Фузули на Кокандскую литературную среду начала XIX века. В качестве основного объекта исследования взято творчество основателя и лидера Кокандской литературной среды, двуязычного поэта Амири (Амир Умархан). В статье анализируются татаббу (подражание) Фузули в исполнении Амири, создание такмисов (пятистиший), а также внедрение фузулианской лексики, стиля и системы образов в поэзию Амири. Также рассматривается косвенное влияние традиций Фузули на творчество других представителей Кокандской



литературной среды, таких как Надира, Фазлий Намангани, Мукими. Статья посвящена вопросам литературного влияния, преемственности, татаббу и написанию назира, служит раскрытию диалектики традиции и новаторства в классической литературе Востока.

Ключевые слова: Фузулий, Амирий, Кокандская литературная среда, татаббу, тахмис, литературное влияние, издошлик (следование / преемственность), традиция, новаторство, газель.

Abstract: this article examines the influence of the works of Muhammad Fuzuli, the great representative of 16th-century Azerbaijani classical poetry, on the Kokand literary environment of the early 19th century. The main object of the study is the work of Amiriy (Amir Umarkhan), the founder and leader of the Kokand literary environment and a bilingual poet. The article analyzes Fuzuli's ghazals that were imitated (tatabbu) by Amiriy, the creation of takhmises (pentastichs), as well as the incorporation of Fuzuli's lexicon, style, and imagery into Amiriy's poetry. The indirect influence of Fuzuli's traditions on the works of other representatives of the Kokand literary environment, such as Nadira, Fazliy Namanganiy, and Muqimiy, is also considered. The article addresses issues of literary influence, succession, tatabbu, and nazira writing, serving to reveal the dialectic of tradition and innovation in Eastern classical literature.

Keywords: Fuzuliy, Amiriy, Kokand literary environment, tatabbu, takhmis, literary influence, izdoshlik (discipleship / following), tradition, innovation, ghazal.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida adabiy aloqalar, o‘zaro ta’sir va izdoshlik masalalari tadqiqining alohida o‘rni bor. Har bir san’at asari o‘z davri tafakkuri mahsuli bo‘lish bilan birga, asrlar davomida shakllanib kelayotgan an’analarning yangi ko‘rinishdagi ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, badiiy ijodda an’anaviylik va novatorlik masalasini

o‘rganish, tarixiy takomil bosqichlarini belgilash adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

XIX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek mumtoz she’riyati tarixida alohida hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda Amir Umarxon (Amiriy) boshchiligida yetmishdan ortiq shoirni birlashtirgan adabiy muhit yuzaga keladi. Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – turkiy (o‘zbek, ozarbayjon, uyg‘ur) va forsiy she’riy an’analarning sintezi asosida rivojlanishidir. Aynan shu sintez jarayonida XVI asr ozarbayjon mumtoz she’riyatining buyuk vakili Muhammad Fuzuliy ijodi muhim o‘rin tutadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – Fuzuliy she’riyatining Qo‘qon adabiy muhitiga, xususan, ushbu muhitning asoschisi va yetakchisi Amiriy ijodiga ko‘rsatgan ta’sirini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish. Tadqiqotda adabiy ta’sirning turli shakllari – tatabbu, taxmis, tavr (uslubiy izdoshlik) hamda leksik va uslubiy o‘zlashtirishlar masalasi o‘rganiladi.

METODLAR

Tadqiqotda bir qator ilmiy metodlardan foydalanilgan:

1. Qiyosiy-tarixiy metod – Fuzuliy va Amiriy she’riyatini o‘zaro qiyoslash, ularning adabiy an’analar tizimidagi o‘rnini aniqlash maqsadida qo‘llanilgan.

2. Tasniflash metodi – Fuzuliy ta’sirida yaratilgan she’riy namunalarni janr, mavzu, badiiy san’atlar va leksik xususiyatlar asosida guruhlashda foydalanilgan.

3. Tavsifiy tahlil metodi – she’riy matnlarning mazmun va shakl xususiyatlarini atroflicha yoritishda qo‘llanilgan.

4. Kontekstual tahlil – she’rlar matnini ular yaratilgan davrning adabiy-estetik, ijtimoiy va madaniy konteksti bilan bog‘liq holda o‘rganishda foydalanilgan.

5. Germenevtik (talqiniy) metod – she’riy matnlarning mazmun mohiyatini chuqur anglash va ularning badiiy qimmatini ochishda qo‘llanilgan.



Tadqiqotda Fuzuliy va Amiriy devonlari, shuningdek, Qobilova monografiyasida keltirilgan tahliliy ma’lumotlar asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

NATIJALAR

Fuzuliy (1494–1556) o‘z davrining eng buyuk turkiy shoiri sifatida nafaqat ozarbayjon, balki butun turkiy adabiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uning g‘azallari XVI asrdayoq Movarounnahr va Xuroson hududlarida mashhur bo‘lgan. Qo‘qon adabiy muhitiga kelganda esa, uning ta’siri bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo‘lgan.

Fuzuliy o‘zidan keyingi turkiy va forsiy adabiyotga nihoyatda kuchli ta’sir o‘tkazgan. Jumladan, Movarounnahrda ham turkiyzabon shoirlar Fuzuliyga ergashganlar, uning ta’sirida ijod qilganlar, g‘azallariga tatabbular yozganlar, taxmislar bog‘laganlar. Amiriy ham bundan mustasno emas» (Qobilova, 2021, 71-bet). Ayniqsa, «Fuzuliy turkiy g‘azal uslubini kamolot cho‘qqisiga ko‘targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g‘azallari ravon va musiqiyligi, o‘ynoqiligi bilan, go‘zal tashbehlarga boyligi bilan ko‘ngillarni band etadi.

Qo‘qon adabiy muhitida Fuzuliy she’riyatining o‘rganilishi va o‘zlashtirilishida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etgan:

Birinchidan, Fuzuliyning ozarbayjon lahjasida yozilgan asarlari turkiy adabiy tilning imkoniyatlarini kengaytirgan. Uning she’rlarida uchraydigan «o‘g‘uzcha sheva elementlari» Qo‘qon shoirlari tomonidan ijodiy o‘zlashtirilgan.

Ikkinchidan, Fuzuliy g‘azallarining falsafiy-ma’naviy mazmuni, ishq va muhabbat talqini, tasavvufiy obrazlar tizimi Qo‘qon muhiti shoirlari uchun muhim ilhom manbai bo‘lgan.

Uchinchidan, Fuzuliyning «Layli va Majnun» dostoni janr rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, Qo‘qon adabiy muhitida dostonchilikdan ko‘ra lirik janrlar – g‘azal va muxammas rivojlangan.



Amiriy Fuzuliy ijodini chuqur o‘rganib, undan mahorat sirlarini o‘rgangan. Qobilovaning kuzatishicha, «Xususan, g‘azalni go‘zal matla bilan boshlash san’atini o‘zlashtiradi – Amiriy matlalari badiiy san’atlar, xususan, tashbehlarga boyligi bilan ajralib turadi» [1, 72]. Amiriy ijodida fuzuliyona unsurlarni uch yo‘nalishda kuzatish mumkin:

Amiriy qator g‘azallarida Fuzuliyga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni qo‘llagan. «U Fuzuliy g‘azallariga bir necha tatabbu yozadi, taxmislar bog‘laydi, “bengzatdim”, “ayduqcha”, “cho‘x”, “topan”, “bo‘lan”, “chekan”, “o‘lan”, “qilan”, “vor”, “ko‘ran”, “kezdigidur”, “sinduran”, “sonur”, “yo‘x”, “do‘ndirmish”, “verub”, “edan”, “vermish”, “verdi”, “o‘sonmaydur”, “verancha”, “dun”, “dushdi”, “o‘sondim”, “sonuram”, “o‘kush” kabi fuzuliyona so‘zlarni g‘azallari matniga olib kiradi» [1, 72].

Bu leksik birliklar ozarbayjon turkiysiga xos bo‘lib, ularning Amiriy she’riyatida qo‘llanishi Fuzuliy she’riyatining Qo‘qonda qanchalik chuqur o‘rganilganligidan dalolat beradi.

Amiriy Fuzuliyning bir qator g‘azallariga tatabbu (ijodiy javob) yozgan. Tatabbu – shakl (vazn, qofiya, radif) va mazmun jihatidan asos qilib olingan g‘azalga ergashib, yangi badiiy barkamol asar yaratish demakdir.Tatabbu taqlid emas, balki tatabbu bog‘lanayotgan asarning mavzu-g‘oyasi, shakliy unsurlarini saqlagan holda, uni mazmun va shakl jihatidan rivojlantirib, o‘ziga xos originallikka erishish.

Fuzuliy g‘azali (matla) Amiriy tatabbusi (matla) Umumiy xususiyatlar Farqli jihatlar «G‘am ilojin may etar – aydi Fuzuliy ham Amir, Ey asiri domi g‘am, bir go‘shai mayxona tut» «Ey xarobi chashmi maxmuring ko‘ngul, paymona tut, Bir qadah la’ling zakotidin berib, mastona tut» (1,63) Hazaj vazni, «tut» radifi, mayxona motivi Amiriy matlasi o‘ziga xos istiora va tashbehlarga boy «G‘amzasin sevding, ko‘ngil, joning gerakmazmu sango? Tig‘a urding, jismi uryoning gerakmazmu sango?» «Xat chiqarding, la’li xandoning kerakmazmu sango? Xizra verdinq, obi hayvoninq kerakmazmu sango?» (1,49) Bir xil radif («kerakmazmu sango»), «so‘roq»



uslubi Amiriy la’l va obi hayvon obrazlarini qo‘llagan. «Qil tafoxurki, saning ham vor banimtak oshiqing. Laylining Majnuni, Shirinning agar Farhodi vor» «Layliyu Majnun bila, Farhodu Shirinman sango, Ishq devoni aro har kimsaning bir bobi bor» (1,83) Layli-Majnun, Farhod-Shirin obrazlarining qo‘llanishi Amiriy «ishq devoni» konsepsiyasini yaratgan.

Amiriy Fuzuliy g‘azallaridagi falsafiy-ma’naviy mazmunni o‘ziga xos tarzda davom ettiradi. Qobilovaning tahlilicha, «Amiriy Fuzuliy g‘azali zohiran dunyoviy muhabbat tarannumiga bag‘ishlanganday ko‘rinsa-da, botinan xarobot ahli bo‘lgan chin oshiq, so‘fiyning ahvoli va uning Yaratganga bo‘lgan mehri, bandalik majburiyatlarining sharhi sifatida namoyon bo‘ladi» (2021, 93-bet). Amiriy tomonidan qo‘shilgan misralar lirik qahramonning ruhiy holati, komillik yo‘lidagi riyozatlarini yanada kengroq va to‘laroq ochadi.

Amiriy nafaqat tatabbu, balki Fuzuliy g‘azallariga muxammas (taxmis) ham bog‘lagan. Taxmis – biror shoirning g‘azal baytlariga uch misradan qo‘shib, besh misrali bandlar hosil qilish san’atidir. Qobilovaning qayd etishicha, «Amiriy Fuzuliyning “Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landin so‘r...” matlasi bilan boshlanuvchi mashhur g‘azaliga ko‘plab shoirlarning taxmis bog‘laganliklari ma’lum. Amiriy ham katta jur’at bilan unga nihoyatda teran, g‘azalning g‘oya va mazmunini to‘ldiruvchi va kuchaytiruvchi taxmis bog‘lagan» [1, 91].

Quyida ushbu muxammasning ilk bandi keltirilgan:

Fuzuliy g‘azali (birinchi bayt):

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landin so‘r,

Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o‘landin so‘r.

Amiriy tomonidan qo‘shilgan misralar:

Balo dashtida g‘am tog‘in meningdek zor o‘landin so‘r,

Muhabbat ramzini Majnun kibi afgor o‘landin so‘r,

Mazoqi la’li nobin ishq aro xummor o‘landin so‘r,



Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landin so‘r,

Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o‘landin so‘r.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Amiriy tomonidan qo‘shilgan uch misra (1-3 misralar) Fuzuliy baytidagi fikrni asoslab, sharhlab va rivojlantirib keladi. «Balo dashtida g‘am tog‘i», «Majnun kibi afgor», «mazoqi la’li nob» kabi obrazlar orqali ishq dardining og‘irligi va oshiqning holati yanada yorqin tasvirlanadi.

Muxammasning keyingi bandlarida ham Amiriy mahoratning yangi qirralarini namoyish qiladi. Qobilovaning fikricha, «Taxmis bilan to‘liq tanishgan o‘quvchi Fuzuliy salohiyati bilan bellashishga qodir shoirning taxayyulot mevasidan estetik zavq olish barobarida, Amiriyning o‘z ijodiy faoliyatida ulug‘ shoir asarlaridan va yuksak badiiy san’atidan bevosita bahramand bo‘lganligiga yana bir bor iqror bo‘ladi. Ayni chog‘da, mazkur taxmis Amiriyning Fuzuliy g‘azalining mavzu va g‘oyasini quruq, behis takrorlamay, batamom yangi asar yarata olganligini ko‘rsatadi.

Amiriy orqali Fuzuliy an’analari Qo‘qon adabiy muhitining boshqa vakillari ijodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Nodira – Amiriyning umr yo‘ldoshi va iste’dodli shoira – Fuzuliy uslubida g‘azallar yozgan. Uning g‘azallarida fuzuliyona ohanglar, ishq va muhabbat falsafasining teran talqini kuzatiladi.

Fazliy Namangoniy – Qo‘qon adabiy muhitining malik ush-shuarosi – Fuzuliy g‘azallariga tatabbular va muxammaslar bog‘lagan. «Majmuai shoiron» tazkirasida Fuzuliyga tatabbu qilgan shoirlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Muqimiy – keyingi davr o‘zbek adabiyotining yirik vakili – Fuzuliy an’analarini rivojlantirgan. Qobilovaning yozishicha, «Muqimiy uchun Alisher Navoiy ijod yo‘lida qo‘l etmas ideal bo‘lsa, Amiriy – yo‘lchi yulduz edi» (2021, 181-bet). Muqimiy Amiriy orqali Fuzuliy ta’sirini o‘zlashtirgan.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amiriy Fuzuliyga bo‘lgan munosabatida adabiy ta’sirning ikki asosiy shakli – tatabbu va taxmis muhim o‘rin tutgan.

Tatabbu – ijodiy musobaqa shakli bo‘lib, unda shoir o‘zini ta’sirlantirgan g‘azal asosida yangi, mustaqil asar yaratadi. Amiriy tatabbularida quyidagi xususiyatlar ajralib turadi:

· Vazn va radifni saqlash, lekin qofiya tizimini yangilash;

· Asos g‘azaldagi mavzuni rivojlantirish va yangi qirralarini ochish;

· Fuzuliy qo‘llagan obraz va timsollarni badiiy jihatdan mustahkamlash;

· O‘ziga xos, original misralar yaratish.

Taxmis – murakkabroq va mas’uliyatli janr bo‘lib, unda shoir boshqa shoirning g‘azal baytlarini asos qilib olib, ularni uch misra bilan to‘ldiradi. Taxmis bog‘lash «shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir» [1,84]. Amiriy Fuzuliy g‘azaliga bog‘lagan muxammasida:

· Fuzuliy fikrlarini asoslovchi, sharhlovchi va rivojlantiruvchi misralar yaratgan;

· Tasavvufiy mazmunni yanada chuqurlashtirgan;

· Ikki shoir hammuallifligida yangi badiiy butunlik vujudga keltirgan.

Sharq mumtoz she’riyati kanonik tipga mansub san’at sifatida yashab, qat’iy mezonlar asosida rivojlangan. Ana shu mezonlar doirasida yangilik yaratish, o‘ziga xos so‘z va obraz topish buyuk iste’dod talab qilgan. Fuzuliy aynan shunday betakror iste’dod sohibi bo‘lgan. Amiriy esa uning maktabida tahsil olib, o‘ziga xos uslubni yaratgan.

Amiriy faqat salaflarga ergashib, ustozlari ta’sirida qalam tebratish bilan kifoyalanib qolmagan, balki an’ana doirasida yangilik qilishga, Sharq adabiyotida keng ishlangan timsolu tashbehlarning yangi-yangi qirralarini topishga, o‘ziga xos favqulodda o‘xshatishlar, badiiy san’atlar qo‘llashga harakat qilgan. Agar uning she’rlari buyuk so‘z ustalariga shunchaki taqliddan iborat bo‘lganida, xalq orasida

bunchalik shuhrat qozonmagan, g‘azallari hofizlar tiliga tushmagan, o‘zidan keyingi shoirlarga kuchli ta’sir o‘tkazmagan bo‘lar edi.

Muhokamada e’tiborga molik jihatlardan biri – Fuzuliy she’riyatining Hind uslubi (sabki hindiy) bilan bog‘liqligidir. Ammo Qobilovaning ta’kidlashicha, «Hind uslubi» atalmish ijodiy uslubni o‘z vaqtida «hind uslubi» emas, «tarz she’ri» yoxud «iroqiy (eroniy) tarz» ataganlar» Bu uslubning umumiy nishonasi – badiiy mazmunning chuqur va nozik shaklda ifodalanishi, mazmun yaratishga asoslanganligi edi.

Amiriy Fuzuliy she’riyatini o‘rganish orqali hind uslubiga xos bo‘lgan badiiy ifoda vositalarini ham o‘zlashtirgan. Bu hol, xususan, uning Bedil g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday qilib, Fuzuliy bilvosita Amiriyning forsiy she’riyat bilan adabiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Qo‘qon adabiy muhiti orqali Fuzuliy she’riyati Xorazm adabiy muhitiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Qobilovaning qayd etishicha, «Xiva adabiy muhitining zabardast namoyandasi Ogahiyga kelib esa Amiriy ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi» (2021, 197-bet). Ogahiy Amiriyning Fuzuliy ta’sirida yozilgan g‘azallariga tatabbu qilgan va taxmislar bog‘lagan. Bu esa Fuzuliy ta’sirining ikki bosqichli (Fuzuliy → Amiriy → Ogahiy) adabiy zanjir shaklida davom etganligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Muhammad Fuzuliy she’riyati XVI asrdan boshlab turkiy adabiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Qo‘qon adabiy muhiti (XIX asr boshlari) ham bu ta’sir doirasidan tashqarida qolmagan. Ayniqsa, ushbu muhitning asoschisi va etakchisi Amiriy ijodida fuzuliyona uslub va obrazlar muhim o‘rin egallaydi.

Amiriy Fuzuliy g‘azallariga tatabbu (ijodiy javob) va taxmis (muxammas) shakllarida murojaat qilgan. Tatabbularda vazn va radifni saqlab, qofiya tizimini yangilagan, asos g‘azaldagi mavzuni rivojlantirgan va yangi qirralarini ochgan. Taxmislarda esa Fuzuliy fikrlarini asoslovchi, sharhlovchi va rivojlantiruvchi misralar

yaratib, ikki shoir hammuallifligida yangi badiiy butunlik vujudga keltirgan. Amiriy ijodida fuzuliyona leksika («cho‘x», «bengzatdim», «ayduqcha», «qamu», «santak», «o‘landan so‘r» va boshqalar) keng qo‘llanilgan. Bu hol uning Fuzuliy asarlarini chuqur o‘rganganligidan, ozarbayjon turkiysining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirganligidan dalolat beradi. Fuzuliy ta’siri Amiriy ijodidan tashqari Qo‘qon adabiy muhitining Nodira, Fazliy Namangoniy, Gulxaniy kabi boshqa vakillari ijodida ham kuzatiladi. Bu ta’sir keyingi davr o‘zbek adabiyotining yirik vakili Muqimiy ijodida Amiriy orqali bilvosita o‘z aksini topgan.

Fuzuliy she’riyati Qo‘qon adabiy muhiti orqali Xorazm adabiy muhitiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ogahiy kabi shoirlar Amiriy orqali fuzuliyona uslubni o‘zlashtirganlar. Bu esa Fuzuliy ta’sirining ikki bosqichli adabiy zanjir shaklida davom etganligini ko‘rsatadi.

Amiriyning Fuzuliyga izdoshlik qilishi – bu taqlid emas, balki ijodiy musobaqa va an’ana doirasida novatorlik edi. U o‘z tatabbularida Fuzuliy bilan bellashishga, o‘z shoirlik salohiyatini namoyish etishga intilgan va bu borada muvaffaqiyat qozongan. Uning Fuzuliy g‘azaliga bog‘lagan muxammasi ikki buyuk shoirning badiiy uyg‘unligi, hamohang ko‘ngillar sadosi sifatida baholanishi mumkin.

Fuzuliyning Qo‘qon adabiy muhitiga ta’sirini o‘rganish nafaqat adabiy aloqalar tarixini yoritish, balki mumtoz she’riyatda an’ana va novatorlik dialektikasini, ijodiy izdoshlikning badiiy-estetik qonuniyatlarini ochish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqot o‘zbek va ozarbayjon adabiyotlarining o‘zaro bog‘liqligi va mushtarak rivojlanish yo‘llarini o‘rganishga qo‘shilgan salmoqli hissadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qobilova, Z. (2021). Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik (Amiriy she’riyati misolida). Toshkent: «TURON-IQBOL».

2. Amiriy. (2017). Devon. I. O‘zbekcha she’rlar. (Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov). Toshkent: Tamaddun.



3. Fuzuliy. (1959). Devon. Toshkent: O‘zadabiynashr.

4. Qayumov, A. (1961). Qo‘qon adabiy muhiti. Toshkent: Fan.

5. Ochilov, E. (2018). Tatabbu - mahorat maktabi. O‘zbek tili va adabiyoti, №1, 46-55-betlar.